


Jizzax viloyatida turizm va dam olish sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Jizzax viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 11 tani tashkil qilib, 2019-yilda ular tomonidan 18,5 ming nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi.

Jizzax viloyati bo'yicha 2019-yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylarda joylashtirilgan shaxslar soni 38984 nafar bo'lib, 1683 nafar MDH davlaridan tashrif buyurgan bo'lsa, 1675 nafari esa uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan.



2019-yilda Jizzax viloyatida mehmonxona va shunga o‘xshash joylarda joylashtirilgan shaxslar, foizda



2019-yilda safar maqsadlari bo‘yicha mehmonxona va shunga o‘xshash joylardagi nomer fondi 690 ta bo‘lib, joylashtirilgan shaxslarning soni 38990 nafarni tashkil etdi. Shaxsiy maqsadlar bilan joylashtirilgan shaxslar soni 7515 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar bilan joylashtirilgan shaxslarning soni 31475 nafarni tashkil etgan.

2019-yilda safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylarda joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, **foizda**

80,7 %
Ish yuzasidan
va kasbga oid
maqsadlar



19,3 %
Shaxsiy
maqsadlar



2019-yilda turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylarda joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi



11 kishi

29-91 kun tunash

786 kishi

8-28 kun tunash


752 kishi

4-7 kun tunash

37439 kishi


1-3 kun tunash

2019-yilda shaxsiy maqsadlari bo‘yicha mehmonxona va shunga o‘xshash joylarda joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi



2019-yilda mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni 39 tani tashkil qilgan. Ulardan 31 tasi mehmonxonalar bo‘lib, 16,1 foizi bir yulduzli, 6,5 foizi ikki yulduzli, 16,1 foizi uch yulduzli va 61,3 foizi toifaga ega bo‘lmagan mehmonxonalar toifasini tashkil etadi.

2019-yilda mehmonxonalarining toifasi (yulduzi) bo'yicha faoliyati,
foizda



- Bir yulduzli mehmonxonalar
- Ikki yulduzli mehmonxonalar
- Uch yulduzli mehmonxonalar
- Toifaga ega bo'lmagan mehmonxonalar

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

72-221-51-36

72-222-81-36